XALQ DEPUTATLARI G'OZG'ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-mart VI-55-34-5-210-K/24 G'ozg'on shahar

Shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida.

Shahar kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limining 2024-yil 23-fevraldagi 405-sonli va Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 04-martdagi 12-238/20-07-38/172-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 va 126-143-moddalariga muvofiq shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limining 2024-yil 23-fevraldagi 405-sonli va Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 04-martdagi 12-238/20-07-38/172-sonli xatiga ko`ra shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. G‘ozg‘on shahar kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limiga bahor mavsumi uchun manzarali ko‘chatlar ekish va sotib olish uchun **15 000 000 (o`n besh million)** so‘m mablag‘ ajratilsin.

3. Budjet tashkilotlari va muassasalari hamda budjetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlasin.

4. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boboyev), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (X.Muhammadjonov)larga:

mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Zoyirov) hamda xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha (D.Egamova) doimiy komissiya zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

BAZAROV AZIM
DANIKULOVICH